

ГЕОДЕЗИЯ ВА КАРТОГРАФИЯ МИЛЛИЙ МАРКАЗИ (ГКММ).

Geodeziya va kartografiya milliy markazi (GKMM) SSSR MS huzuridagi Geodeziya va kartografiya bosh boshqarmasining 1975 yil 2 yanvardagi 2-S sonli buyrug‘i bilan O‘zSSR MSning 1975 yil 20 maydagi 289-28 sonli qaroriga muvofiq tashkil topgan.

- ✘ Priroda” ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish markazining 1975-1988 yillarda O‘zbek bo‘limi, 1988-1992 yillarda O‘zbek filiali bo‘lgan.
- ✘ 1992-1996 yillarda – Kosmik tabiatshunoslik milliy markazi.
- ✘ 1996-2003 yillarda – Geoinformatika va kadastr milliy markazi.
- ✘ 2003 yildan hozirgi vaqtgacha – Geodeziya va kartografiya milliy markazi.

✘ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 19 oktyabrdagi 483-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi (“Ergeodezkadastr”) tasarrufiga “Geodeziya va kartografiya milliy markazi” DUK sifatida qo‘mita tarkibiga kiradi.

- ✘ GKMM DUK iqtisodiyot, fan, mudofaa va mamlakat xavfsizligi, Davlat kadastrlari yagona tizimini hamda Ko'chmas mulk ob'ektlari ma'lumotlari markaziy bazasini yaratish va yuritish, Geografik ob'ektlarning nomlari davlat reestrini yaratish va yuritish, normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, davlat ahamiyatiga molik boshqa masalalar sohalarini geodezik va kartografik jihatdan ta'minlash borasida davlat ahamiyatidagi bir qator muhim masalalarning echilishini ta'minlaydi.

- ✘ GKMM faoliyatining huquqiy asoslarini O‘zbekiston Respublikasining quyidagi qonunlari va Hukumat qarorlari tashkil qiladi
- ✘ “Geodeziya va kartografiya to‘g‘risida”gi;
- ✘ “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi;
- ✘ “Davlat er kadastrlari to‘g‘risida”gi;
- ✘ “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi;
- ✘ “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi;
- ✘ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 19 oktyabrdagi 483-son qarori va boshqalar.

Ривожланишнинг асосий вазифалари ва йўналишлари:

- ✘ 1-класс Давлат йўлдош геодезияси тармоғини яратиш
- ✘ 1:25 000 масштаб рақамли картографик асосни яратиш ва қўллаш
- ✘ Худудий маҳаллий координаталар тизимларини ўрнатиш ишлари
- ✘ Географик объектларнинг номлари давлат реестрини яратиш ва юритиш
- ✘ Давлат кадастрлари ягона тизимини (ДКЯТ) яратиш ва юритиш
- ✘ Кўчмас мулк объектлари маълумотлари марказий базасини яратиш ва юритиш
- ✘ Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқиш

Юқорида зикр этилганлардан ташқари, ГКММ томонидан қуйидаги иш турлари ҳам бажарилади:

- 1:500 дан 1:100 000 гача масштаблардаги топографик съёмка ишларининг барча турларини бажариш;
- рақамли топографик карталар ва планларни, жойнинг рақамли моделларини яратиш ва янгилаш учун аэрофотосъёмка ва космофотосъёмка материалларига ишлов бериш;
- жойнинг ортофотопланларини, фотосхемаларини ва фотокарталарини тайёрлаш;
- саноат майдончалари ва ерости коммуникацияларини съёмка қилиш;
- автомобиль йўллари ва темир йўллар учун чизиқли қидирув ишлари;
- ерларни, бинолар ва иншоотларни кадастр съёмкасини қилиш.

ГКММ томонидан топография-геодезия, фотограмметрия, картография ишларини ва бошқа ишларни бажаришда АҚШ, Швейцария, Япония, Россияда ишлаб чиқарилган қуйидаги замонавий асбоб-ускуналар ва дастурий таъминотлардан кенг қўлланиб келинмоқда:

- ✘ – “ERDAS Imaging”, “Панорама” ГАТ, ArcGIS дастурий-технологик комплекслари;
- ✘ – Leica GeoSystem электрон тахеометрлари;
- ✘ – GPS Leica GeoSystem-300 йўлдош геодезияси приёмниклари ва улар учун дастурий таъминот.